

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

“HUQUQIY BILIMLARNI OSHIRISH”
o‘quv kursi bo‘yicha
O‘QUV DASTURI
(qisqa muddatli o‘quv kursi)

2025-yil

I. TASHKILIY-USLUBIY BO'LIM

1.1. Kursning maqsadi

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 26-sentabrdagi 319-um-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta'minlash yuzasidan nazorat-rejaning 42-bandij ijjrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdag'i "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-son qarori talablariga mos keladi.

1.2. Kutilayotgan natijalar

Tinglovchilar:

-Murojaatlarni ko'rib chiqish sohasidagi davlat siyosatining maqsad va vazifalari;
-“O'zbekiston-2030” strategiyasi va uning mazmun-mohiyati bo'yicha nazariy bilim va ko'nikmalarini oshiradilar.

1.3. O'qitish shakli

ishdan ajralgan yoki ishdan ajralmagan holda.

1.4. Tinglovchilar kontingenti

Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari

II. O'QUV KURSINING MAVZULAR REJASI

| | | | | |
|-------------|---|---|---------|----------|
| 2.1. | O'quv kursining umumiyligi va o'quv ishlari turi bo'yicha hajmi: O'quv kursini o'rganish uchun 4 soat ajratilgan. Auditoriya mashg'ulotlari: ma'ruza— 2 soat, seminar—2 soat. | | | |
| 2.2. | O'quv kursining mavzular rejasi | Mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar | | |
| T/r | Mavzular nomi | Ma'ruza | Seminar | Jami |
| 1 | Murojaatlarni ko'rib chiqish sohasidagi davlat siyosatining maqsad va vazifalari | 2 | — | 2 |
| 2 | “O'zbekistonning-2030” strategiyasi va uning mazmun-mohiyati | — | 2 | 2 |
| | Jami: | 2 | 2 | 4 |

III. O'QUV MATERIALINING MAZMUNI

1-mavzu. Murojaatlarni ko'rib chiqish sohasidagi davlat siyosatining maqsad va vazifalari

Asosiy masalalar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan inson huquq va majburiyatlari, davlat hokimiyatining tizimi, Konstitutsiya va qonunlarning ustivorligi. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi qonunning mazmun mohiyati. Prezident va Vazirlar Mahkamasining sohaga oid qarorlari. Murojaatlar bilan ishlashda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishni tartibga solish. Murojaat etish huquqlari kafolatlari. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari munosabati bilan ular xavfsizligining kafolatlari. Davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida murojaatlar bilan ishlashni huquqiy tartibga solish.

2-mavzu. “O'zbekiston-2030” strategiyasi va uning mazmun-mohiyati

Asosiy masalalar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”dagi Farmoni mazmuni. Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish. Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish. Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

IV. O‘QUV KURSINING O‘QUV-USLUBIY TA’MINOTI

Tavsiya etiladigan normativ-huquqiy hujjatlar

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”dagi Farmoni

Izoh:

1. Malaka oshirish kurslarining aniq vaqtini va o‘qitish shakllari (*ana’naviy, masofaviy-onlayn - zoom ilovasi orqali va buyurtmachi joylashgan binoda*) buyurtmachi tashkilot bilan kelishilgan holda belgilanadi.
2. Buyurtmachi tashkilotlar taqsimot-rejaga o‘quv kursi muddati va xodimlar soni bo‘yicha tegishli o‘zgartirish kiritish huquqiga ega, bu to‘g‘risida o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishdan kamida 5 kun oldin xabar berilishi kerak.
3. Malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga belgilangan namunadagi sertifikat beriladi.